



NOSIR XISRAVNING “SAFARNOMA “ ASARIDA GEOGRAFIK
TAVSIFNING ADABIY-BADIIY YONDASHUVI

Nuriddinbekova Muslima Muxiddin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

malikanuriddinbekova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nosir Xisravning Safarnoma asarida geografik tavsif qanday adabiy-badiiy yondashuvda aks etgani tahlil qilinadi. Tadqiqotda matn tahlili va qiyosiy yondashuv usullari qo'llanilib, muallif tomonidan keltirilgan manzaralar va joy nomlarining badiiy tasviri o'rganiladi. Natijalarga ko'ra, Nosir Xisrav geografik ma'lumotlarni shaxsiy tajriba, falsafiy mushohada va badiiy tasvir vositasida ifoda etgani aniqlanadi. Bu esa Safarnomaning nafaqat tarixiy va geografik, balki adabiy hamda madaniy qiymatini ham belgilaydi.

Kalit so'zlar: Nosir Xisrav, “Safarnoma”, metafora, adabiy-badiiy yondashuv, ismoiliylik, geografik, tavsif, poetic unsur, stilistik uslub

ЛИТЕРАТУРНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПОДХОД ГЕОГРАФИЧЕСКОГО
ОПИСАНИЯ В САФАРНАМЕ НАСИРА ХИСРАВА

Аннотация. В данной статье анализируется литературно-художественный подход к географическому описанию в произведении Насира Хисрава «Сафарнама». В исследовании используются методы текстового анализа и сравнительного подхода, изучается художественная репрезентация упомянутых автором пейзажей и топонимов. По результатам установлено, что Насир Хисрав выражал географическую информацию через личный опыт, философские наблюдения и художественный образ. Это определяет не только историческую и географическую, но и литературную и культурную ценность Сафарнамы.

Ключевые слова: Насир Хисрав, «Сафарнома», метафора, литературно-художественный подход, исмаилизм, географическое описание, поэтический элемент, стилистический стиль.

LITERARY AND ARTISTIC APPROACH TO GEOGRAPHICAL
DESCRIPTION IN SAFARNAMA BY NASIR KHISRAW

Abstract: This article analyzes the literary and artistic approach to the geographical description in the work of Nasir Khisrav "Safarnama". The research uses the methods of text analysis and comparative approach to study the artistic depiction of landscapes and place names presented by the author. According to the results, it is determined that Nasir Khisrav expressed geographical information through personal experience, philosophical



observation and artistic depiction. This determines not only the historical and geographical, but also the literary and cultural value of the Safarnama.

Keywords: *Nasir Khisrav, "Safarnama", metaphor, literary and artistic approach, Ismailism, geographical, description, poetic element, stylistic style*

KIRISH.

Nosir Xisravning Safarnoma asari XII asr islom olamining madaniy, siyosiy va diniy hayotini yorituvchi muhim manbalardan biri sanaladi. Bu asar nafaqat muallifning shaxsiy kuzatishlari va tajribalarini aks ettiradi, balki turli geografik hududlar, ularning aholisi, ijtimoiy tuzilishi va an'anaviy qadriyatlari haqida muhim ma'lumotlar beradi. Safarnomaning o'ziga xos jihatlaridan biri muallifning geografik tavsif uslubidir[8]. Nosir Xisrav o'z sayohatlari davomida bosib o'tgan shaharlar, qishloqlar va tabiiy landshaftlarni faqat quruq faktlar bilan emas, balki tasviriy vositalar orqali ifodalagan. U joylarning go'zalligini, obodligini yoki xarob ahvolga kelganligini ta'sirchan so'zlar bilan ifoda etadi.

Geografik tavsif adabiy-badiiy asarlarning ajralmas qismi bo'lib, u muallifning dunyoqarashi, estetik qarashlari va uslubini o'zida aks ettiradi. Tarixiy sayohatnomalar orasida Safarnoma o'zining realistik tasvir uslubi, falsafiy mushohadalari va badiiy jihatdan boyligi bilan ajralib turadi. Bu esa ushbu asarning oddiy geografik manba sifatida emas, balki adabiy asar sifatida ham muhimligini ko'rsatadi. Lekin Nosir Xisravning geografik tavsiflari hali yetarlicha adabiy jihatdan tadqiq qilinmagan.

Hozirgacha qilingan tadqiqotlarda Safarnoma asosan tarixiy, falsafiy va diniy nuqtai nazardan o'rganilgan. Masalan, ayrim tadqiqotchilar Nosir Xisravning sayohati va uning Ismoiliiy ta'limotini targ'ib qilishdagi o'rni haqida fikr yuritganlar. Shuningdek, Safarnomadagi geografik ma'lumotlarning tarixiy ishonchliligi ham tadqiq qilingan. Biroq asarning badiiy jihatlarini, xususan, geografik tasvirlarning adabiy-badiiy tahlili hali yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli mazkur maqolada Nosir Xisravning Safarnomadagi geografik tavsif uslubi va uning adabiy-badiiy xususiyatlari atroflicha tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – Safar nomadagi geografik tavsiflarni adabiy-badiiy jihatdan tahlil qilish va Nosir Xisravning tasvirlash uslubini aniqlashdan iborat. Buning uchun asarning badiiy vositalaridan foydalanish darajasi, metaforalar, tasviriy san'atlar, stilistik uslublar va poetik unsurlar o'rganiladi. Ushbu tadqiqotda adabiy tahlil, qiyosiy yondashuv va kontekstual tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqot natijasida Nosir Xisravning geografik tavsiflari nafaqat real voqelikni aks ettirish uchun yozilganini, balki muallifning estetik va falsafiy qarashlarini ifodalashga ham xizmat qilganini aniqlash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, maqolada Safarnomaning adabiy jihatlarini bo'yicha ilgari olib borilgan tadqiqotlarga qo'shimcha hissa qo'shish maqsad qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nosir Xisrav va uning ilmiy merosi haqida mashhur sharqshunoslardan A.Ye. Bertelsning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan. U o'zining ilmiy tadqiqotida Nosir Xisravning





ismoiliylik oqimi va uning targ'ibotidagi o'rnini mufassal yoritib bergan. [1]. Yana uning Nosir Xisravning "Safarnoma" sini rus tiliga ham tarjima qilgan.

Bundan tashqari uning falsafiy qarashlari G. Ashurovning tadqiqotida ham tahlil etilgan.[2]. Ustoz sharqshunos olim Sh. Shomuhammedovning fors-tojik adabiyotiga bag'ishlangan ilmiy ishlarida ham Nosir Xisravga oid ma'lumotlar talaygina.

"Safarnoma" asaridan ayrim parchalar H. Hasanovning "Sayyoh olimlar"[3], H.Homidiyning "Daholar davrasi" [4,114] kitoblarida berib o'tilgan.

"Safarnoma"ning bevosita haj ziyoratiga doir lavhalari tarixchi Omonulla Bo'riyev tomonidan tarjima qilinib, alohida kitobcha tarzida nashr etilgan.[5].

"Safarnoma" asarida geografik tavsifning adabiy-badiiy yondashuvi tahlil qilindi. Tadqiqot sifat jihatidan adabiy-badiiy tahlil metodiga asoslangan bo'lib, matn ichidagi geografik tasvirlar, ularning stilistik va semantik xususiyatlari o'rganildi.

Tadqiqotda asosiy manba sifatida Nosir Xisravning "Safarnoma" asarining G'ulom Karim tomonidan tarjima qilingan nashri,[6], shuningdek, ushbu asarga oid sharh va izohlar qo'llanildi.

Tadqiqot doirasi Nosir Xisravning "Safarnoma" asaridagi geografik tavsiflar bilan cheklangan bo'lib, undagi barcha mavzular emas, faqatgina muayyan hududlar tasviri va ularning badiiy ifodalari tahlil qilindi. Ushbu cheklov tadqiqotning aniq maqsadga yo'naltirilganligini ta'minlash uchun qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR:

Nosir Xisravning "Safarnoma" asarida geografik tavsif oddiy joy nomlari yoki masofalar ro'yxati emas, balki adabiy, falsafiy va ijtimoiy mazmun bilan boyitilgan murakkab hodisadir. Uning sayohat davomida tasvirlagan joylari nafaqat geografik nuqtai nazardan, balki, madaniy, diniy va falsafiy kontekstda ham yoritiladi. Asarda muallif uch asosiy uslubni uyg'un qo'llaydi: **obyektiv tavsif, subyektiv taassurot va badiiy yondashuv**. Ushbu uslub Nosir Xisravning tavsiflarini sharqona adabiy an'ana va ilmiy tafakkur bilan boyitadi.

Muallif geografik makonlarni tasvirlashda badiiy vositalar, poetik obrazlar va ramziy ifodalardan foydalanadi. Masalan, Nil daryosini u shunchaki suv manbai sifatida emas, balki hayot va barakat timsoli sifatida tasvirlaydi:

"Nil daryosi to'xtovsiz harakat qilayotgan hayot manbaidir. Uning suvi kabi, bu yerda insonlar ham doimo harakatda, tirikchilik bilan band."[6,43]

Bu kabi poetik obrazlar oddiy geografik tavsifni jonlantirib, tasvirni o'quvchi uchun yaqinroq va hissiyroq qiladi.

Bundan tashqari, Nosir Xisrav geografik joylarni nafaqat jismoniy makon, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlar timsoli sifatida ham ko'rsatadi. Masalan, Misr shahri haqida u shunday yozadi:

"Misr bozorlarida biror narsa sotishayotganda faqat rost gapirishadiagar kim xaridorni aldasa, uni tuyaga mingazib, qo'lga qo'ng'iroq tutqazishadi va shahar bo'ylab





aylantirishadi .U qo`ng`iroq chalib, ‘Men yolg`on gapirdim va malomatga qoldim ‘, deya qichqiradi. Yolg`nchining jazosi shu!’[6,57]

Bu tavsif shaharni nafaqat geografik nuqtai nazardan, balki rostgo`ylik timsoli sifatida ham yoritadi.

Shuningdek, Nosir Xisrav sayohatni faqat jismoniy harakat emas, balki ma`naviy sayohat sifatida ham ko`radi. Bu tasavvufiy qarash uning geografik tavsiflariga ham ta`sir qiladi. U Makka va Madina haqida so`z yuritar ekan, ularni oddiy shahar emas, balki insonning qalb ko`zi bilan ko`rishi kerak bo`lgan muqaddas joylar deb ta`riflaydi:

“Shaharlar ichida bir shahar borki, uni nafaqat ko`z bilan, balki qalb bilan ham ko`rish lozim.”[6,79]

Bu yondashuv Nosir Xisravning geografik tavsiflarini islomiy tafakkur va tasavvufiy dunyoqarash bilan bog`laydi.

Nosir Xisrav muayyan joylarni tasvirlar ekan, ularning me`moriy obidalar, tabiiy landshaftlari va mahalliy aholining hayot tarzini batafsil tasvirleydi. Masalan, u Isfahon haqida shunday yozadi:

“Isfahon shahri keng va obod. Uning bozorlari mahobatli, ko`chalarida suv o`zanlari oqib yotadi. Masjidlar yuksak va hashammatali, devorlarida turli rangdagi naqshlar chizilgan. Bu yerning aholisi toza kiyinadi va hushmuomala.”[6,98]

Bu tasvirdan Nosir Xisravning arxitektura, suv tizimi va jamiyatning madaniy darajasi haqida qanday fikr bildirgani ko`rinib turibdi. Ayniqsa, **“bozorlari mahobatli”** yoki **“masjidlar yuksak”** degan ta`riflari orqali shaharning taraqqiyot darajasi tasvirlangan.

Yana muallif ba`zi joylar tasvirida metaforalar va badiiy taqqoslashlardan ham oqilona foydalanadi. Masalan, u Taroblis shahrini tasvirlar ekan shunday deydi:

“Shahar maydoni eni va bo`yiga ming arshdir. To`rt- besh, hatto olti tabaqali binolar bor. Ko`chalar vabozorlar shunchalik ozodaki, ularning harbirini bezatig`lik bir saroy deb o`ylash mumkin.”[6,26]

Bu yerda muallif o`z hayratini yashirmaydi. Shaharni ozoda ekanligini chiroyli savirlab beradi.

Nosir Xisrav shaharlardagi muhitni tasvirlash uchun yorug`lik va ranglardan foydalanadi. Masalan, u Damashq va Irqa shaharlari orasidagi dasht haqida shunday yozadi:

“Nargislar qiyg`os gullagan bo`lib, gulining ko`pligidan butun dasht oppoq bo`lib ko`rinadi.”[6,26]

Bu tasvir shunchaki geografik ma`lumot emas, balki tasviriy san`at elementlarini o`z ichiga olgan badiiy bayondir. Nosir Xisrav o`quvchini hudud muhitiga kirib borishiga yordam beradi.

U faqat ko`z bilan ko`rish mumkin bo`lgan tasvirlar bilan kifoyalanmay, boshqa hissiyotlarni ham tasvirleydi. Masalan, badaviylar haqida shunday yozadi:

“Ba`zi odamlar bir yil davomida bir marta qo`lini yuvmas edi. Ular umrlarida na hammom van a oqar suvni ko`rishgan.”[6,89]

Bu tasvir orqali Nosir Xisrav badaviylarni `quvchi ko`z o`ngida namoyon etadi.





Nosir Xisrav ba'zan geografik tasvirlarini ijtimoiy va diniy odatlar bilan boyitadi. Masalan, u Ja'rona mavzesi haqida shunday yozadi:

"Aytishlaricha, payg'ambar alayhissalom shu chuqulikda xamir qorgan ekanlar. Odamlar ham shu yerda xamir qilib, non yopib, uni tabarruk narsa sifatida uylariga eltishadi."[6,81]

Bu fikr orqali Nosir Xisrav ushbu mavze haqida ma'lumot berish bilan birga o'quvchi ko'z oldiga o'sha muhit va rasm-rusumni keltiradi.

Shu bilan birgalikda Nosir Xisrav o'zining ko'char mulki, ya'ni kitoblari haqida ham ibratli xabar bitgan. Jumladan, u yozadi :

"Hajni ao etgach, men Misrga qaytdim, chunki u yerda kitoblarim qolgan edi. Bu yil Misrga Madina amiri tashrif buyurdi. U Husayn ibn Ali salavatullohi alayhumo avlodidan bo'lgani uchun sulton unga yillik mablag' tayinlagan va shuni olishga brogan edi. Men u bilan kemada Qulzumga birga bordim. Undan Misrga ham birga ketdik". [7]

XULOSA VATAKLIFLAR:

Nosir Xisravning Safarnoma asaridagi geografik tasvirlar shunchaki joylarni sanab o'tish yoki ob'ektlarni qayd etishdan iborat emas. U bu tasvirlarga:

- Shaxsiy tajriba va hissiyotlarini qo'shadi,
- Badiiy vositalardan foydalanadi (metaforalar, ranglar, sensor tasvirlar),
- Jamiyat va siyosatga oid fikrlarini singdiradi,
- Ilmiy va amaliy ma'lumotlarni beradi.

Bu jihatlar uning Safarnoma asarini nafaqat geografik manba, balki badiiy-geografik janr vakiliga aylantiradi.

Asar syujet jihatidan ham oddiy geografik yozuvlardan farq qiladi. Muallif sayohat maromiga ko'ra emas, balki muhim tajribalar va joylar asosida tasvir beradi. Xuroson, Bag'dod, Qohira kabi shaharlar shunchaki xaritada belgilangan nuqtalar emas, balki muallif uchun ijtimoiy va madaniy muhitni anglash manbalari sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Nosir Xisravning geografik tavsifi badiiy adabiyot, falsafa, tasavvuf va tarix o'rtasidagi chegaralarni yo'q qiladi. Uning "Safarnoma"si shunchaki sayohat tafsilotlari emas, balki shaxsiy kuzatuv, ma'naviy izlanish va tafakkurning mushohadali natijasidir. Shu bois, asar nafaqat geografiya, balki adabiyot, tarix va falsafa nuqtai nazaridan ham qimmatli manba hisoblanadi.

Kelgusidagi ishlar uchun quyidagilarni tavsiya sifati taklif eta olishimiz mumkin:

1. Nosir Xisravning geografik tasvir uslubi boshqa islomiy geografik asarlar, xususan, Ibn Battuta va Al-Muqaddasiy asarlari bilan qiyosiy tahlil qilinishi kerak. Bu "Safarnoma" ning umumiy an'anaviy yoki o'ziga xos jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

2. "Safarnoma" dagi geografik tavsif va badiiy tasvir uyg'unligi zamonaviy sayohat adabiyoti bilan qiyoslanib, adabiy janr sifatida uning evolyutsiyasi o'rganilishi lozim

3. Nosir Xisrav asarining til va uslubiy jihatlarini chuqur tahlil qilinib, tarjimalar orasidagi tafovutlar o'rganilishi va aniq ilmiy mezonlar asosida baholanishi zarur.





4. Asardagi ijtimoiy va madaniy tafovutlar aks ettirilgan joylar zamonaviy geografik, etnografik va adabiy manbalar bilan solishtirilib, ularning tarixiy haqiqatga qanchalik mos kelishi tahlil qilinishi mumkin.

5. Nosir Xisrav asarining hozirgi davr o'quvchilari uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi aniqlanib, uni adabiy va tarixiy manba sifatida o'rganishning zamonaviy usullari ishlab chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А. Е. Бертельс . Насир-и Хисрав и исмаилизм , Москва, 1959
2. Ашуров Г. Философские взгляды Носира Хисрава. Душанба ,1965
3. Х.Хасанов . «Саййох олимлар» . Тошкент, 1964
4. Х.Хомидий . «Дахлар давраси» . Тошкент , 2011
5. «Хаж сафари дафтарида» (Носир Хисравнинг «Сафарнома»сидан). Форс тилидан О.Буриев таржимаси . Масъул мухаррир : Абдулазиз Мансур , Тошкент , 2000
6. Носир Хисрав . «Сафарнома» . Тошкент , 2003
7. В. Rajabova. Mushtarak tarixiy voqe'liklar siri ("Safarnoma", "Sayohatnoma" va "Boburnoma" misolida). Yangi O'zbekiston gazetasi, 2023-yil 8-noyabr, 232(1021)-son.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sayohatnoma>